
Ramazon shukuhi: "Mumtoz" to'yxonasida ham iftorlik tadbiri ko'tarinki ruhda o'tkazildi

Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish maqsadida Farg'ona shahar hokimligi, sektor rahbarlari va "Mahalla" xayriya jamoat fondi shahar bo'limi tomonidan kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olinib, ro'zadorlar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Bugun ana shunday xayrli tadbir "Barkamol" va "Yulduz" mahalla fuqarolar yig'inlarida istiqomat qilayotgan aholi vakillari uchun tashkillandi.

"Mumtoz" to'yxonasida bir dasturxon atrofida yig'ilgan mahalladoshlar bunday e'tibordan behad xursand bo'ldi. Nuroniylar va diniy ulamolar yurtimizga tinchlik, qut-baraka, xalqimizga ahillik tilab duolar qilishdi.

2023-04-12 12:11:54